

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Kriptotahlil fani bo‘yicha elektron o‘quv qo‘llanma yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - Respublika va ilg‘or xorijiy davlatlarning oliy ta‘lim muassasalarida olib boriluvchi kriptografiya sohasiga oid o‘quv dasturlari tahlili qilinadi; - uslubiy ishlanmalarga qo‘yiluvchi talablar asosida kriptografiyaning asosiy masalalari va instrumentlarini (oliy ta‘lim muassasalarida kriptografiya sohasidagi o‘qitiladigan o‘quv dasturlariga muvofiq) mujassam etuvchi elektron o‘quv qo‘llanmaning tarkibiy mazmuni va undagi materiallarni (matn, grafika, jadval, animatsiya, audio, video, trenajer, virtual laboratoriya) multimedia vositalari bilan taqdim etilishi, interaktiv imkoniyatlari, bilim, ko‘nikma va malakani baholash funksiyalariga talablar shakllantiriladi; - veb texnologiyalar asosida turli platformalarni qo‘llab-quvvatlovchi davlat tilida elektron o‘quv qo‘llanma yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Ichki ishlar vazirligi tizim tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida natijalar Ichki ishlar vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Ichki ishlar vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.